

OILA MUHITINING SHAXS TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVIDAGI AHAMIYATI

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
*Pedagogika yo'nalishi talabasi **Abduqodirova Malohat G'ofur qizi***
malohatabduqodirova7@gmail.com

Annotasiya: Mazkur maqolada oila muhitining shaxs tarbiyasi va ijtimoiylashuvidagi o'rni hamda ahamiyati ijtimoiy pedagogika, oila pedagogikasi va yunogogika fanlari nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Oila shaxsning dastlabki ijtimoiy tajriba makoni, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar shakllanadigan asosiy muhit sifatida qaraladi. Oilaviy tarbiya jarayonining tamoyillari, ota onaning pedagogik mas'uliyati, farzand shaxsini ijtimoiy muhitga tayyorlashdagi omillar keng yoritilgan. Maqolada shuningdek, oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning ijtimoiylashuvdagi o'rni, yunogogik yondashuv asosida shaxsni barkamol etib tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi.

Kalitso'zlar: Oila pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, yunogogika, tarbiya, ijtimoiylashuv, shaxs kamoloti, ota-ona mas'uliyati, ma'naviy qadriyatlar, yoshlar.

Kirish: Oila inson hayotidagi eng muqaddas maskan, tarbiya beshigi va jamiyatning poydevoridir. Har bir shaxsning ma'naviy dunyosi, qadriyatlari, ijtimoiy xulqi hamda hayotiy qarashlari avvalo oilada shakllanadi. Shu boisdan oila tarbiyasi masalasi ijtimoiy pedagogika, oila pedagogikasi va yunogogika fanlarining o'rganish markazida turadi. Ijtimoiy hayotda shaxsning ijtimoiylashuvi — bu uning jamiyat me'yorlari, qadriyatlari va xatti-harakatlarini o'zlashtirishi jarayonidir. “Ijtimoiylashuv” atamasi dastlab siyosiy iqtisodiyotdan kelib chiqqan bo'lib, insonning ijtimoiy tajriba va qadriyatlarni o'zlashtirish, jamiyat hayotiga moslashish jarayonini ifodalaydi.

Amerikalik sotsiolog F.G. Keddings bu tushunchani “insonni ijtimoiy hayotga tayyorlash, uning ijtimoiy tabiatini shakllantirish jarayoni” sifatida ta’riflagan. Aynan shu jarayonning boshlang‘ich bosqichi oilada kechadi.

Oila — shaxs ijtimoiylashuvida birlamchi muhit sifatida nafaqat tarbiyaviy, balki kommunikativ makondir. Inson o‘zining ilk muloqot ko‘nikmalarini aynan oilada egallaydi. “Muloqot” so‘zi yunoncha “dialogos” atamasidan olingan bo‘lib, “suhbatlashuv”, “shaxslararo fikr almashuv” ma’nolarini bildiradi. Muloqot jarayonida inson ijtimoiy tajriba, ta’lim tarbiya, axloqiy me’yorlar, g‘oya va mafkura omillari ta’sirida yashab, ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga etadi. Oila muhiti esa ana shu muloqotning eng tabiiy va qulay shakllanish joyidir. Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi doimiy muloqot jarayoni bola tafakkuri, hissiyoti, dunyoqarashi va xulq-atvorining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘sib borayotgan yosh avlod, ayniqsa o‘smirlik davrida, shaxs sifatida mustaqil qarashlar shakllantiradi. Bu bosqichda tengdoshlar ta’siri kuchayadi, natijada o‘smirlar ko‘pincha rasmiy jamoa va norasmiy guruhlar o‘rtasida tanlov qilish holatida qoladilar. Agar oilada iliq, ishonchli va muloqotga ochiq muhit mavjud bo‘lsa, o‘smir salbiy ijtimoiy ta’sirlarga berilmaydi, aksincha, o‘zini qadrllovchi va ijobiy jamoalarda faol bo‘ladi. Shu bois oila muhiti o‘smir shaxsining ijtimoiy faolligini, hissiy barqarorligini va irodaviy yetukligini shakllantiruvchi asosiy omildir. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan oilaviy muhit, ota-ona munosabati, tarbiya uslubi va oiladagi ruhiy muhitga bog‘liq. Shuning uchun ham oila faqat biroz vaqtni birgalikda o‘tkazadigan joy emas, balki ijtimoiy va pedagogik tarbiya maktabi sifatida qaraladi. Ijtimoiy pedagogika nuqtayi nazaridan, oila shaxsni jamiyatga tayyorlaydigan birinchi ijtimoiy institutdir.

Bola dastlabki ijtimoiy qoidalar, madaniyat va me’yorlarni oiladan o‘rganadi. Ota-onaning nutqi, muomala madaniyati, mehr-muhabbati va mas’uliyati bola ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli har bir ota-

ona o'z xulqi, so'zi va harakati bilan farzand uchun ijtimoiy namuna vazifasini bajaradi. Oila muhitida shakllangan ijobiy munosabatlar bolada ishonch, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Aksincha, befarqlik, zo'ravonlik yoki nizoli muhitda ulg'aygan bola jamiyatda o'z o'rnini topishda qiynaladi. Shu bois ijtimoiy pedagoglar oila muhitini tahlil qilish va uni ijobiy yo'nalishga o'zgartirishni o'z faoliyatlarining muhim yo'nalishi sifatida belgilaydilar. Oila pedagogikasi — bu tarbiya jarayonini aynan oilaviy muhitda tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganadigan fan. U otalarning pedagogik savodxonligini oshirish, farzand bilan to'g'ri psixologik muloqot o'rnatish, ma'naviy qadriyatlarga tayanish kabi masalalarni qamrab oladi.

Oila pedagogikasining asosiy tamoyillari:

Mehr-muhabbat va e'tibor — bola o'zini qadrlangan his qilganda, uning ruhiy dunyosi barqaror bo'ladi;

Shaxsga individual yondashuv — har bir farzandning qobiliyat va qiziqishlarini inobatga olish;

Ota-ona mas'uliyati — har bir qaror, har bir so'z tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini anglash; Hamkorlik — oila, maktab va jamoatchilikning birgalikdagi tarbiyaviy faoliyati. Ushbu tamoyillar sog'lom oilaviy muhitni yaratadi, bu esa bevosita shaxsning ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oila muhitining tarbiyaviy ta'siri shundaki, bola kundalik hayotda ota-ona va yaqinlarining xulqini kuzatish orqali insoniy fazilatlarni o'zlashtiradi. U o'z xatti-harakatini ijtimoiy me'yorlar asosida boshqarishni o'rganadi. Ota-onalar o'rtasidagi samimiy muloqot va o'zaro hurmat farzand uchun eng kuchli namunadir. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlarning sifati bevosita shaxsning ijtimoiylashuv darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Oila muhitida shakllangan qadriyatlar va tarbiyaviy yo'nalishlar shaxsning jamiyatdagi o'rnini aniqlovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Inson oilada o'zini anglash, boshqalarni hurmat qilish, mas'uliyatni his etish kabi hayotiy

ko'nikmalarni egallab boradi. Bu jarayon, o'z navbatida, uning ijtimoiylashuvini chuqurlashtiradi va jamiyatdagi turli ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi. Shaxs oilada olgan tajribasi asosida maktab, mehnat jamoasi yoki boshqa ijtimoiy guruhlar bilan muloqot qilishni o'rganadi. Zamonaviy jamiyatda oilaning ta'sir doirasi texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari va raqamli muloqot vositalari bilan kengayib bormoqda. Shunday bo'lsa-da, insonda ma'naviy barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va insoniy fazilatlar asosan oilaviy tarbiyada shakllanadi. Ota-onaning farzand bilan suhbatlashish uslubi, mehr bilan berilgan har bir nasihat, o'zaro ishonch va hurmat shaxsning dunyoqarashida mustahkam iz qoldiradi. Ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan, bugungi kunda oila tarbiyasining zamonaviy shakllari — ota onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, oilaviy psixologik muhitni sog'lomlashtirish, hamkorlikda ta'limni rivojlantirish — muhim omillar sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki farzand tarbiyasi nafaqat mehr talab qiladi, balki pedagogik bilim, sabr, muloqot madaniyati va to'g'ri yo'naltirishni ham zarur etadi. Yunogogik qarashlarga ko'ra, oila — insonning hayot yo'lini yo'naltiruvchi "axloqiy kompas" vazifasini bajaradi. Unda shakllangan hissiy muvozanat, o'zini anglash va boshqalar bilan samimiy aloqada bo'lish ko'nikmalari hayot davomida shaxsni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois, sog'lom oilaviy muhit nafaqat farzandning bugungi xulqida, balki uning kelajakdagi ijtimoiy faoliyatida ham aks etadi. Tarbiya jarayonida oilaning ta'siri mustahkam bo'lishi uchun unda o'zaro hurmat, tenglik, mehr-muhabbat, samimiyat va mas'uliyat ustuvor bo'lishi lozim. Bunday oilaviy muhitda voyaga yetgan farzandlar boshqalarga nisbatan bag'rikeng, adolatli va mehrlil bo'lib shakllanadi. Natijada ular nafaqat o'z oilasining, balki butun jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlashga hissa qo'shadilar.

Oila — bu shunchaki yashash joyi emas, balki shaxs kamolotining manbai, ijtimoiy hayotga yo'l ochuvchi birinchi maktabdir. Undagi har bir so'z,

har bir muomala, har bir qadriyat insonning ichki dunyosida chuqur iz qoldiradi. Shu sababli, oila muhitining tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish — kelajak jamiyatini ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlash deganidir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham bu jarayonning ahamiyati ta'kidlab o'tiladi. Qonunning moddalarida ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning intellektual, ma'naviy va axloqiy jihatdan barkamol bo'lib shakllanishini ta'minlash deb belgilangan. Bu esa bevosita oilaning tarbiyaviy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, qonunning yana bir moddasida ta'lim jarayonining uzluksizligi va uzviyligi qayd etilib, oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi globallashuv davrida oilaning tarbiyaviy roli yanada ortmoqda. Chunki texnologiyalar, internet, ommaviy madaniyat ta'siri ostida yoshlar turli g'oyalar oqimiga duch kelishmoqda. Shu sharoitda oila– yoshlarni milliy qadriyatlarga, axloqiy me'yorlarga sodiq bo'lishga o'rgatuvchi eng ishonchli tarbiya maskani bo'lib qolmoqda. Farzandda Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlar avvalo oilada qaror topadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyunda qabul qilingan "Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida ham oilaning jamiyat hayotidagi o'rnini alohida ta'kidlangan. Unda "oila– jamiyatning eng kichik, lekin eng muhim bo'g'ini bo'lib, unda insonning ma'naviy, axloqiy va fuqarolik fazilatlari shakllanadi" deb qayd etilgan. Ushbu hujjatga ko'ra, har bir oila nafaqat o'z farzandini, balki butun jamiyatning kelajagini tarbiyalaydi. Shu jihatdan qaraganda, oiladagi tarbiyaviy muhit nafaqat farzandning shaxsiy hayotiga, balki millatning ertangi kuniga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar mehr, e'tibor, mas'uliyat bilan yashasa — bu jamiyatda tinchlik, ahillik va birdamlikni ta'minlaydi. Aksincha, befarqlik yoki e'tiborsizlik esa bolada ijtimoiy ishonchsizlik, ruhiy bo'shliqni keltirib chiqaradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, oila shaxs tarbiyasi va ijtimoiylashuvida beqiyos ahamiyatga ega. Oila muhiti insonda insoniy fazilatlarni shakllantiradi, ijtimoiy qadriyatlarga hurmat ruhini singdiradi va uni jamiyatga mos shaxs sifatida voyaga yetkazadi. Shunday ekan, har bir oila o'z tarbiyaviy mas'uliyatini chuqur anglab, farzand tarbiyasiga e'tibor bilan yondashmog'i lozim. Ijtimoiy pedagogika, oila pedagogikasi va yunogogika fanlarining o'zaro uyg'unligi esa bu jarayonni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni
3. Qodirov A. Ijtimoiy pedagogika asoslari.– Toshkent: Fan, 2020.– 215 b.
4. Rasulova M. Oila pedagogikasining nazariy asoslari.– Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2021.– 180 b